



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKI TAHLILI

¹Otaxonova Shohiyora
Xamidulloxon qizi
²Anorboyeva Aziza
Xusniddin qizi

¹Ilmiy rahbar
²TDIU Moliya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi, O'zbekiston iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mamlakatimiz taraqqiyotini iqtisodiy jihatdan yuksaltirish uchun aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida takomillashtirish hamda yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish masalalari muhim ahamiyat kasb etilishi yoritilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarining soni va ular bilan bog'liq bozorning holati, moliya va iqtisodiy tizimda yuz berayotgan o'zgarishlar, xususiylashtirish jarayonlarining ta'siri haqida muhim xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: Aksiyadorlik jamiyati, obligatsiya, aksiya, dividend, valyuta.

KIRISH.


Dastlab aksiyadorlik jamiyati 17-asrda paydo bo'lgan, hozirda keng tarqalib, ommaviy tus olgan. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyati bozor islohotlari davomida mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida paydo bo'ldi, davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish mulkiy o'zgarishlarning yo'nalishlardan biriga aylanadi. Islohatlarning birinchi bosqichida yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati tashkil topdi.

Aksiyadorlik jamiyatiga ta'rif beradigan bo'lsak, aksiyadorlik jamiyati daromad topish maqsadida hissadorlik tamoyiliga binoan uyushgan sherikchilik jamiyati. Aksiyadorlik jamiyati boshqa sherikchilik korxonasidan farqli o'laroq, muomalaga nominal qiymati ko'rsatilgan aksiyalar chiqarish va uni sotish yo'li bilan tarqatish bunday jamiyatning moliyaviy negizini tashkil etadi. Aksiya egalari dividend shaklida daromad oladilar. Aksiyadorlik jamiyatining ochiq va yopiq jamiyat shaklidagi ko'rinishlari bor:

Yopiq aksiyadorlik jamiyati – aksiyaga egalik qiluvchi ma'lum guruh, masalan, ta'sisчилarning o'zi bilan cheklanadi. Yani aksiyalari faqat o'z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati – jamiyat aksiyalari mustaqil sotiladi va sotib olinadi, aksiyadorlar soni cheklanmagan, xohlagan va aksiya olishga puli bor yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan, ajnabiy shaxslar uning a’zosi bo’la oladi.

Uning 2-bosqichida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shakllana boshladi. O‘zbekistonda 1995-yilda 2255 ta, 1996-yilda 5500 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko‘rsatgan. So‘nggi 2 yil ichida statistik ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatlari soni keskin tushib bormoqda. Holatga ko‘ra 2024-til 680ta aksiyadorlik jamiyati, 2025-yilga kelib esa bu ko‘satgich atiga 9 taga oshgan.



1-rasm. O'zbekistonda AJ lar faoliyati yillar kesimida¹


Diagrammadagi ma’lumotlardan kelib chiqib tahlil qilganimizda oxirgi 10 yil ichida O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining soni tobora qisqarib borganini ko‘rishimiz mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati mablag‘ini bir yerga jamlab biznesga qo‘yish uchun tuziladi. Uning tashkilotchilari ta’sischilar deb yuritiladi. Ta’sischi firmalar, banklar, davlat va ayrim rezidentlar bo‘lishi mumkin. Aksiyadorlar jamiyatining afzalligi shundaki, u mayda valyutanini to‘plab yirik valyutaga aylantirish, ya’ni kapital bo‘la oladigan valyutaga aylantirishdan, mayda puldorlarning pulini ham biznesga qo‘yishdan iborat. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarishning oliy organi - aksiyadorlar majlisi, so‘ngra direktorlar kengashi va quyi bo‘g‘ini bo‘linmalar boshqarmasidan iborat. Aksiyadorlar majlisi aksiyadorlar jamiyati yillik hisobotini, nizomdagi o‘zgarishlarni, daromadning taqsimlanishini, foyda-zarar hisob-kitobini, taftish natijalari, rahbarlarni saylash masalasini ko‘rib chiqadi va tegishli qarorlar qabul qiladi.

Iqtisodiyotda pul mablag‘lari doim harakatda bo‘ladi. Sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi aynan shu oldi-sotdi munosabatlari moliya bozorini belgilab beradi. Zamonaviy moliya bozorini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri esa kapital yoki fond bozorini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bunda xaridor nafaqat pul, balki boshqa turdagi moliyaviy instrumentlar, jumladan, qimmatli qog‘ozlar orqali ham savdo qilishi mumkin. So‘nggi yillarda mamlakatimiz ochiq bozor iqtisodiyotiga o‘tib bormoqda. Moliyaviy bozor imkoniyatlarining oshishi kapital bozori rivojida ham aks

¹ Deponent.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

etmoqda. Bunga yana bir misol qilib “Toshkent” RFBda savdolarning instrumentlar bo'yicha yillar davomida tarkibiy ko'rsatkichlarini ko'rib o'tamiz.



2-rasm. “Toshkent” RFBda savdolarning instrumentlar bo'yicha tarkibi

Diagrammaga to'xtaladigan bo'lsak 2015-yilda “Toshkent” RFB da aksiyalar bozori 153.5 (mlrd.so'm), obligatsiyalar bozori 7.5(mlrd.so'm), jami esa 161.0 (mlrd.so'm) ni tashkil qilgan. 2016-yil bu ko'rsatkichlar aksiyalar bozorida 295.8 (mlrd so'm) ni ya'ni 2015-yilga nisbatan 92.7% ko'rsatgichda o'sgan. Obligatsiyalar bozorida esa bu ko'rsatgich 3.5 (mlrd.so'm) ga tushgan. Demak, 2016-yilda aksiyalar bozori o'sib, obligatsiyalar bozori esa tushgan. Jami daromad 299.8 (mlrd.so'm) ga o'sgan. 2022-yilga kelib bu ko'rsatgich sakkiz yil davomidagi eng kata ko'rsatkichni qayd etgan, yani bu ko'rsatkich, aksiyalar bozori 4705.8 (mlrd.so'm), obligatsiyalar 110.4 (mlrd.so'm) va jami daromad esa 4816.2 (mlrd.so'm) ni qayd etgan. 2023-yilga kelib esa aksiyalar bozorida bu ko'rsatgich qariyb yarim barobarga tushgan. Diagramma ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, aksiyalar va obligatsiyalar bozori so'nggi ikki yil ichida yuqori implusni qayd etgan.

Xulosa.

O'zbekistonning aksiyadorlik jamiyati tizimi bozor islohotlari davomida shakllanib, davlat mulkini xususiylashtirish jarayonining asosiy bo'g'iniga aylandi. Dastlabki bosqichda yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati tashkil topgan bo'lsa, keyinchalik ochiq aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishi va ular sonining ko'payib borishi kuzatilgan. Ammo, so'nggi yillarda aksiyadorlik jamiyatlari sonining keskin kamayishi, ayniqsa, 2024-yildan 2025-yilgacha bu raqamning juda kichik bo'lishi, iqtisodiy islohotlarning samaradorligiga va kapital bozorining rivojlanishiga oid savollarni tug'dirmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari nafaqat kichik investorlarning kapitalini to'plash, balki ularga biznesga ishtirok etish imkoniyatini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimi va ularning yirik iqtisodiy birlikga aylanishi iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda

asosiy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, O'zbekistonning aksiyadorlik jamiyatlari tizimi va kapital bozorining rivojlanishi, iqtisodiy islohotlar jarayonining eng muhim va jiddiy jihatlaridan biri bo'lib, uning yanada samarali ishlashi uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi tashabbuskorlikni, hamkorlikni kuchaytirish, yangi investitsiyalarni jalb etish va yirik korxonalarning barqaror faoliyatini ta'minlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Deponent.uz - <https://uzcsd.uz/>
2. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi o'zbekiston respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-2382409>
3. "Toshkent" Respublika fond birjasi - <https://www.uzse.uz>
4. S.Elmirzayev, N.Tursunova, N.Sherqo'ziyeva - Moliya bozori 2019.